



## SANOAT TARMOG'I MEHNAT SAMARADORLIGINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARINI IQTISODIY-STATISTIK JIHATDAN BAHOLASH

**Mirzayeva Intizor Ergashevna**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch  
davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Tel.: +99890-438-05-08, e-mail:

manzili- intizor3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17877429>

**Annotatsiya.** Maqolada mintaq va uning hududlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat ulushi hamda ularning o'zgarish tendensiyalari baholangan. Shuningdek, mintaqadagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, ularning o'zgarish darajasi ochib berilgan. Shu bilan birga, mintaqadagi mehnat samaradorligi umumiy va sanoat sohasi bo'yicha iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilingan. Olingan natijalarga muvofiq, sanoat sohasidagi mehnat samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В статье дана оценка доли добавленной стоимости, создаваемой в регионе и его территориях, и динамика её изменения. Раскрыто производство промышленной продукции в регионе и динамика её изменения. Проведен экономико-статистический анализ производительности труда в регионе в целом и по отраслям. На основе полученных результатов разработаны предложения по повышению производительности труда в промышленном секторе.

**Abstract.** The article assesses the share of added value created in the region and its territories and their trends. It also reveals the production of industrial products in the region and their rate of change. At the same time, labor efficiency in the region is analyzed in general and by industry from an economic and statistical point of view. In accordance with the results obtained, proposals are developed to improve labor efficiency in the industrial sector.

**Kalit so'zlar.** Sanoat, ish bilan bandlik, mintaq, hudud, mehnat samaradorligi, qo'shilgan qiymat.

**Ключевые слова.** Промышленность, занятость, регион, территория, производительность труда, добавленная стоимость.

**Key words:** Industry, employment, region, area, labor productivity, value added.

Sanoat tarmog'i davlatlar hamda mintaq darajasida iqtisodiyot barqarorligida muhim o'rin tutadi. Soha rivoji samaradorlik, xususan mehnat unumdorligi o'sishiga, natijada esa aholining turmush darajasi yaxshilanishiga olib keladi. Shunga muvofiq, mamlakatimiz va uning hududlarida sohani





rivojlantirishga, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish hamda modernizatsiya qilishga, innovatsion faollikni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu holat mehnat samaradorligi o'sishiga hamda soha ishlab chiqarish ko'lamining ortishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, ayrim mintaqalarda mehnat samaradorligining past bo'lishi texnik jihozlanishning yetarli emasligi, korxonalarda mehnat unumdorligini oshiruvchi innovatsion jarayonlarning sustligi, logistik imkoniyatlarning cheklanganligi va kadrlar malakasining pastligi bilan izohlanadi. Mintaqalararo farqlarni baholash esa sanoat siyosatini yanada takomillashtirish, investitsiyalarni oqilona taqsimlash va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Sanoat tarmog'i mehnat samaradorligining mintaqaviy xususiyatlarini iqtisodiy-statistik jihatdan baholash yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Jozef Shumpeterning yondashuvi iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari haqida yangi tasavvurni beradi va bunda innovatsiyalar toifasi hal qiluvchi konseptual o'rin egallaydi [1]. Mazkur nazariyada eski texnologiyalar o'rnini yangilari egallashi sanoat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuch hamda innovatsiyalar sanoat o'sishining eng muhim omili sifatida baholanadi [2]. T.Mityaeva bergan ta'rifga ko'ra, sanoat deganda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning umumiy xo'jalik maqsadiga, mahsulot ishlab chiqarishning xom ashyo va texnologik jarayonlarining tipikligiga, o'xshashligiga, korxonalarda band bo'lgan xodimlarning malakasiga, shuningdek, mehnat sharoitlarining o'xshashligiga ega bo'lgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar majmui tushuniladi [3]. Duglass Nortdir ta'kidlashicha, institutsional yondashuvlar mazkur nazariy oqimning muhim gipotezalarini tushunishga yordam beradi [4]. I.G.Gorlovskaya davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan foydalangan holda sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmini shakllantirish zarurligini qayd etadi [5]. B.Raysbergning ta'kidlashicha, sanoat tarmoq sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy xususiyatlari, uni ishlab chiqarish texnologiyalari va muayyan belgilangan ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadigan korxonalar va ishlab chiqarishlar yig'indisidir [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda sanoat tarmog'i mehnat samaradorligining mintaqaviy xususiyatlarini iqtisodiy-statistik jihatdan baholashda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni





guruhi, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakat miqyosida mintaqa, uning tarkibidagi hududlar kesimida ishchi kuchining malakasi va mavjud texnologiyalar darajasi o'zaro farqlanadi. Bu holat o'z o'rnida resurslardan foydalanish natijalariga, samaradorlik mezonlariga va xususan mehnat samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Mazkur masalani ijobiy hal qilish, hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni barataraf qilishda mavjud holatni baholash talab qilinadi. Shu bois, Xorazm viloyati sanoat tarmog'ida mehnat samaradorligi mezoni va uning o'sish tendensiyalarini baholaymiz. Buning uchun dastlab mintaqa faollik darajasini tadqiq qilamiz. Ya'ni, mavjud korxonalar soni va ularning o'zgarishini 2010–2024-yillar davomidagi holatini ko'rib o'tamiz. Bu esa tadbirkorlik muhitining rivojlanishiga baho berish imkonini yaratadi. Jumladan, 2010-yilda Xorazm viloyatida jami 10527 ta korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 28904 taga etgan va ushbu davr davomida 2,75 barobar o'sishi aniqlandi. Shunday bo'lsa-da, korxonalarning soni notekis o'zgarib borgan va 2019–2020-yillar oralig'ida faol o'sishga ega bo'lgan. Jumladan, 2019-yilda 14837 ta bo'lgan korxonalar 2020-yilga kelib 18614 taga yetgan. Mazkur holatni tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibining takomillashtirilganligi, ushbu tizimning soddalashtirilganligi va reglamentning qisqarganligi hamda raqamlashtirishning joriy qilinganligi bilan asoslaymiz. Shu bilan birga, sanoat sohasidagi korxonalar 2010-yildagi 1842 tadan 2024-yilga kelib 5058 taga yetgan va 2,8 barobarga o'sgan. Sanoat sohasidagi eng yuqori o'sish ham 2019-2020-yillarga to'g'ri kelgan. Buning sababi yuqorida aytib o'tganimizdek, korxonalar faoliyatini tashkil qilishning institutsional tizimini takomillashtirilganligi bilan bog'liq.

Shuningdek, jami va sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati yillar davomida ijobiy tendensiyaga ega bo'lsa-da, notekis o'zgarib borgan. Jumladan, 2015-yilda jami korxonalar 4 foizga, sanoat korxonalari esa 6,5 foizga oshgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 25,5 foiz va 28,2 foizni tashkil qilgan. 2024-yilda har ikki ko'rsatkich bo'yicha sezilarli o'sish aniqlangan (100,6 foiz va 100,1 foiz). Demak, viloyatda 2010–2024-yillar mobaynida korxonalar sonining barqaror o'sishi iqtisodiyotda ijobiy tendensiya shakllanganini ko'rsatmoqda. Bu esa, mintaqa va uning hududlarida sanoat sohasini mavjud resurslar salohiyatidan kelib chiqib rivojlantirishni, ularga muvofiq dasturlar ishlab chiqib hayotga tatbiq qilishni talab etadi. Shu bois, viloyat hududlaridagi sanoat mahsulotlarini mintaqa sanoatidagi ulushini





aniqlashimiz, uning o'zgarish tendensiyalariga baho berishimiz zarur. Jumladan, Xorazm viloyati shahar va tumanlarining sanoatlashuv darajasi resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. 2010–2024-yillar davomida viloyatning shahar va tumanlari o'rtasida sanoat ishlab chiqarish ulushi sezilarli darajada o'zgaragan (1-jadval). Ushbu o'zgarishlar hududiy nomutanosiblik, iqtisodiy markazlashuv, sarmoyalarning notekis taqsimlanishi kabi omillar bilan bog'liqlikni ifodalagan. Ya'ni, 2010-yilda Urganch shahri Xorazm viloyatidagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,2 foizni ifodalagan.

**1-jadval**

**Xorazm viloyati shahar va tumanlarining jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi [7]**

| Hududlar nomi                | 2010  | 2011  | 2012  | 2013  | 2014  | 2015  | 2016  | 2017  | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  | O'rtacha (2010-2024-yillar) |
|------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-----------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b>       | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0                       |
| Urganch sh.                  | 40,9  | 38,8  | 39,8  | 42,6  | 32,4  | 23,1  | 30,2  | 29,3  | 23,9  | 23,3  | 19,9  | 16,1  | 17,5  | 16,0  | 14,2  | 27,2                        |
| Xiva sh.                     |       |       |       |       |       |       |       | 1,8   | 1,6   | 1,4   | 1,6   | 1,2   | 1,1   | 1,5   | 1,5   | 1,5                         |
| Bog'ot t.                    | 7,5   | 8,6   | 8,1   | 7,5   | 4,0   | 4,7   | 5,4   | 4,8   | 4,3   | 3,1   | 3,2   | 3,3   | 3,1   | 2,5   | 2,2   | 4,8                         |
| Gurlan t.                    | 5,4   | 5,2   | 4,8   | 5,1   | 3,8   | 4,5   | 4,4   | 4,5   | 4,6   | 4,1   | 4,6   | 3,3   | 2,6   | 2,4   | 2,0   | 4,1                         |
| Qo'shko'pir t.               | 4,2   | 4,0   | 3,8   | 4,0   | 3,4   | 4,4   | 3,9   | 3,3   | 2,6   | 2,2   | 2,6   | 2,6   | 2,0   | 1,9   | 1,8   | 3,1                         |
| Urganch t.                   | 5,4   | 5,3   | 4,0   | 3,8   | 4,4   | 5,1   | 4,9   | 3,5   | 3,1   | 3,0   | 3,5   | 5,8   | 5,0   | 4,4   | 4,4   | 4,4                         |
| Hazorasp t.                  | 10,1  | 8,3   | 10,0  | 7,1   | 30,0  | 32,4  | 24,4  | 31,1  | 40,5  | 47,4  | 3,0   | 2,5   | 2,8   | 2,4   | 2,2   | 16,9                        |
| Tuproqqal'a t.               |       |       |       |       |       |       |       |       |       |       | 44,8  | 51,0  | 51,7  | 54,5  | 49,3  | 50,3                        |
| Xonqa t.                     | 9,3   | 11,5  | 11,3  | 11,4  | 8,0   | 7,7   | 8,4   | 6,8   | 5,7   | 6,0   | 5,2   | 4,5   | 4,1   | 3,8   | 3,8   | 7,2                         |
| Xiva t.                      | 3,5   | 3,5   | 3,3   | 3,5   | 2,8   | 4,3   | 4,9   | 2,1   | 1,7   | 1,4   | 2,6   | 1,8   | 1,5   | 1,6   | 1,3   | 2,7                         |
| Shovot t.                    | 5,8   | 6,6   | 7,2   | 7,7   | 5,7   | 6,7   | 7,0   | 7,1   | 7,0   | 4,3   | 3,2   | 2,6   | 3,7   | 3,5   | 3,5   | 5,4                         |
| Yangiariq t.                 | 3,9   | 4,6   | 4,2   | 4,3   | 3,3   | 4,0   | 3,8   | 3,4   | 3,2   | 2,5   | 2,9   | 2,2   | 2,4   | 2,8   | 2,7   | 3,4                         |
| Yangibozor t.                | 4,0   | 3,7   | 3,4   | 3,0   | 2,3   | 3,0   | 2,7   | 2,3   | 1,7   | 1,4   | 2,8   | 3,3   | 2,6   | 2,8   | 2,9   | 2,8                         |
| O'rtacha (hududlar bo'yicha) | 9,1   | 9,1   | 9,1   | 9,1   | 9,1   | 9,1   | 9,1   | 8,3   | 8,3   | 8,3   | 7,7   | 7,7   | 7,7   | 7,7   | 7,1   | 10,3                        |

Bu holat sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining hududiy diversifikatsiyalashuvini ko'rsatadi. Urganch shahrida sanoat infratuzilmasi rivojlangan bo'lsa-da, hududda yangi sanoat subyektlari tashkil etish





imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori ekspluatatsiya darajasi hamda yer resurslari cheklanganligi hisobiga sanoat korxonalari dislokatsiyasi tumanlarga yo'naltirilgan. Ya'ni, viloyatning Hazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida mashinasozik sanoati kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sanoatning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'laymiz. Xususan, 2020-yildan boshlab Tuproqqal'a tumanining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi bo'yicha yetakchi hudud sifatida shakllangan. Mazkur tumanda sanoat ulushi 2020-yilda 44,8 foizni, 2021-yilda 51,0 foizni, 2022-yilda 51,7 foizni, 2023-yilda 54,5 foizni va 2024-yilda 49,3 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar ushbu hududda yirik sanoat obyektlari, maxsus sanoat zonalari va logistika markazlari tashkil etilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu hudud viloyat sanoatining deyarli yarmidan ortig'ini ta'minlayotgan yagona tumanga aylangan. Buning sababi esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, mashinasozlik sanoatining ushbu hududda joylashuvi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, Xorazm viloyatining Qo'shko'pir, Gurlan, Bog'ot, Yangibozor va Yangiariq tumanlari sanoat ulushi past, lekin barqaror hududlar ekanligini hisob-kitoblarimiz asosida aniqladik. Mazkur hududlar sanoat ulushi bo'yicha quyi o'rinlarda bo'lsada, ularda yillar davomida nisbatan barqaror ulush saqlanib qolgan. Bu hududlar asosan qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi sanoat korxonalari hamda qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat turlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Lekin, amalga oshirgan tahlillarimiz asosida Xorazm viloyatining shahar va tumanlari tomonidan yaratilgan sanoatning jamidagi ulushi bo'yicha bir qator muammolar mavjudligini aniqladik.

Yuqoridagi muammoli holatni hal qilish uchun viloyatning hududlari kesimida mavjud tabiiy, mehnat va infratuzilma resurslaridan kelib chiqib, sanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni takomillashtirish hamda ularni investitsiya dasturi bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Bunda, mahalliy hokimliklar vakolatini kengaytirish, ularning iqtisodiy siyosat yuritishlari uchun mustaqillik darajasini oshirish talab etiladi. Demak, mintaqa va uning hududlarida sanoat ko'lamini kengaytirish, salohiyati va samaradorligini oshirish zarur. Bu esa, mintaqa hududlaridagi samaradorlik mezonlarini tadqiq etishimizni talab qiladi. Shu bois, dastlab Xorazm viloyati va uning hududlaridagi mehnat samaradorligini baholaymiz. Ushbu jarayonni tahlil qilishda mintaqada mavjud mehnat salohiyati va uning miqdory o'zgarishini, jumladan ish bilan band bo'lganlar soni o'zgarishini qarab o'tamiz.

Mintaqa va uning hududlari iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri - ish bilan band bo'lganlar sanaladi. Mazkur ko'rsatkich





aholi daromadlari, iqtisodiy faollik darajasi, mehnat bozoridagi talab va taklif mutanosibligi hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish holatini ifodalaydi. Xorazm viloyati shahar va tumanlarida 2010–2024-yillar davomida ish bilan band aholi sonidagi tendensiya tahlil qilindi. Xorazm viloyatida ish bilan band bo'lganlar 2010-yilda **606,7 ming kishi** bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich **810,6 ming kishiga** etgan. Tadqiqot davri davomida ish bilan band bo'lganlar soni **203,9 ming kishi yoki 33,6 foizga** oshgan. Bu o'sish iqtisodiyot tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hamda yaratilgan yangi ish o'rinlari bilan bog'liq.

Shuningdek, viloyatning bir qator hududlarida o'ziga xos holatlarni aniqladik. Jumladan, Urganch shahrida ish bilan band aholi soni 2010-yildagi **64,7 ming kishidan** 2024-yilda **80,8 ming kishiga** etib, 16,1 ming kishiga ko'paygan. Lekin, uning o'sish sur'ati viloyat umumiy sur'atidan past holatga ega. Shuningdek, oxirgi yillardagi o'zgarishlar sezilarsiz ko'rsatkichlarni ifodalamoqda. Xiva shahrida esa, ish bilan bandlar soni 2017-yil va 2024-yilda mos ravishda 32,0 ming kishidan 44,0 ming kishiga yetib, **37,5 foizga** oshgan. Bu holat hududda turizm rivojlanishi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi hamda tadbirkorlik salohiyatining o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, viloyatning Urganch, Xonqa, Shovot kabi tumanlarida ish bilan band bo'lganlar sonining barqaror o'sishini aniqladik. Ushbu hududlardagi o'zgarishlar **agrosanoat rivojlanishi, ijtimoiy hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining yaxshilanishi** va **qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash** sanoatidagi kengayish bilan bog'laymiz. Bog'ot, Hazorasp va Tuproqqal'a kabi tumanlardagi ish bilan bandlik ko'rsatkichida notekis o'zgarishlar yuz bergan. Buning asosiy sabablari sifatida ushbu hududlarda yirik sanoatning ulushi yuqoriligidir. Shunday bo'lsa-da, ushbu ish bilan bandlik ko'rsatkichi mehnat omilining miqdoriy jihatlarini yohud uning bir taraflama samarasini anglatadi. Lekin, uning sifat va samaradorligini baholashda bandlar hisobiga yaratilgan mahsulotni aniqlashimiz zarur.

Xorazm viloyati va uning hududlarida mehnat samaradorligi 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Viloyat bo'yicha mehnat samaradorligi 2010-yildagi 6,1 mln.so'mdan 2024-yilda 79,6 mln.so'mga o'sgan. Bu esa mehnat samaradorligining qariyb 13 barobar oshganini ifodalamoqda. Bu o'zgarishni mintaqa iqtisodiyotining barqaror o'sishi hamda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishdagi ijobiy o'zgarishlar bilan asoslaymiz. Shunday bo'lsa-da, hududlar kesimidagi tahlilda mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarida nomutanosib o'zgarishlar mavjud. Jumladan, Tuproqqal'a tumani mehnat





samaradorligi bo'yicha 2020-yildan boshlab eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 2024-yilda 721,5 mln.so'mga etgan hamda ushbu ko'rsatkich viloyat o'rtachasidan 8,8 marta yuqori holatga ega. Bu hududdagi sanoat va qayta ishlash korxonalarining faoliyati kengayganini hamda yuqori texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuz bergandigini anglatadi. Urganch shahri va Yangibozor tumanlarida ham mehnat samaradorligi yuqori bo'lib, 2024-yilda mos ravishda 114,5 va 97,4 mln.so'mlarni tashkil etgan.

Shu bilan birga, Hazorasp tumanida mehnat samaradorligi ko'rsatkichi 2019-yilgacha yuqori bo'lib, keyinchalik sezilarli pasayish yuz bergan. Bu holatni uning tarkibidan Tuproqqal'a tumanini ajralib chiqishi hisobiga mashnasozlik sanoatining yangi hududga tegishli bo'lgani bilan asoslaymiz. Xiva shahrida ham mehnat samaradorligida pasayish kuzatilgan bo'lib, bu holat iqtisodiy faollikning sustlashishi, qayta ishlash sanoatiga nisbatan, xizmatlar sohasining kengayib borganligidandir.

**2-jadval**

**Xorazm viloyati va uning hududlarida mehnat samaradorligining statistik tahlili (qiyosiy tahlili) [7]**

| Hududlar nomi      | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | O'rtacha |
|--------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|----------|
| Xorazm viloyati    | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,5  | 1,4  | 1,3  | 3,2  | 3,4  | 2,5  | 3,2  | 2,9  | 2,9  | 2,8  | 2,8  | 2,2      |
| Urganch sh.        | 2,7  | 2,3  | 2,4  | 2,5  | 2,9  | 2,2  | 2,2  | 5,5  | 5,4  | 4,3  | 4,0  | 3,6  | 4,0  | 4,0  | 4,1  | 3,5      |
| Xiva sh.           |      |      |      |      |      |      |      | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0      |
| Bog'ot t.          | 1,2  | 1,3  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,1  | 1,2  | 2,6  | 2,7  | 1,9  | 2,4  | 2,1  | 2,2  | 2,3  | 2,3  | 1,8      |
| Gurlan t.          | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 2,4  | 3,1  | 2,2  | 2,9  | 2,4  | 2,3  | 2,2  | 2,2  | 1,9      |
| Qo'shko'pir t.     | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 2,2  | 2,6  | 1,8  | 2,5  | 2,2  | 2,1  | 2,0  | 1,9  | 1,6      |
| Urganch t.         | 1,3  | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,3  | 1,3  | 3,1  | 3,0  | 2,1  | 2,8  | 2,6  | 2,5  | 2,5  | 2,5  | 2,0      |
| Hazorasp t.        | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 2,1  | 2,1  | 1,8  | 4,9  | 4,7  | 4,1  | 2,3  | 2,1  | 1,6  | 1,6  | 1,6  | 2,3      |
| Tuproqqal'a t.     |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      | 12,9 | 14,9 | 19,3 | 22,6 | 25,7 | 19,1     |
| Xonqa t.           | 1,1  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 2,7  | 2,8  | 2,0  | 2,8  | 2,4  | 2,3  | 2,3  | 2,4  | 1,9      |
| Xiva t.            | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,1  | 1,1  | 2,1  | 3,0  | 2,0  | 2,7  | 2,6  | 2,4  | 2,4  | 2,4  | 1,9      |
| Shovot t.          | 1,1  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,2  | 1,1  | 1,1  | 2,7  | 3,3  | 2,1  | 2,5  | 2,1  | 2,0  | 1,9  | 1,8  | 1,8      |
| Yangiariq t.       | 1,1  | 1,1  | 1,1  | 1,1  | 1,1  | 1,1  | 1,1  | 2,6  | 3,4  | 2,3  | 3,0  | 2,5  | 2,5  | 2,4  | 2,3  | 1,9      |
| Yangibozor t.      | 1,4  | 1,4  | 1,4  | 1,3  | 1,3  | 1,3  | 1,3  | 3,1  | 4,0  | 2,9  | 4,2  | 3,8  | 3,6  | 3,5  | 3,5  | 2,5      |
| Statistik o'rtacha | 1,3  | 1,3  | 1,3  | 1,3  | 1,5  | 1,4  | 1,3  | 2,9  | 3,2  | 2,4  | 3,5  | 3,4  | 3,7  | 3,9  | 4,1  | 2,4      |
| Statistik maksimum | 2,7  | 2,3  | 2,4  | 2,5  | 2,9  | 2,2  | 2,2  | 5,5  | 5,4  | 4,3  | 12,9 | 14,9 | 19,3 | 22,6 | 25,7 |          |
| Statistik minimum  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  |          |





Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir va Shovot kabi tumanlarda mehnat samaradorligi barqaror o'sishi aniqlangan bo'lsa-da, ular viloyat o'rtachasidan past hisoblanadi. Bu esa ushbu hududlarda sanoatni yanada rivojlantirish, yuqori texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini oshirishni talab etmoqda.

Xorazm viloyatida mehnat samaradorligi yuqori sur'atda o'sib, iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Biroq, hududlar kesimidagi farqlar bu o'sishning muvozanatli emasligini ko'rsatadi.

Viloyat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishi uchun hududiy tengsizliklarni kamaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va kadrlarning malakalarini oshirish muhim vazifalar hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun viloyat va uning hududlari kesimida mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari holatini iqtisodiy-statistik jihatdan ochib berishimiz zarur. Chunki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkich qiymatlarda ifodalangan bo'lib, ular inflyasion bosimdan holi emas.

Iqtisodiy-statistik usullar asosida o'zgarishlarni baholaganimizda, bir davr doirasida ularning o'zaro qiyosiy tahlil qilishimiz hamda shu asosda real holatga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Xorazm viloyatida mehnat samaradorligining statistik ko'rsatkichlari 2010-2024-yillar davomida ijobiy o'zgarishga ega bo'lgan. Jumladan, viloyat o'rtacha ko'rsatkichi 2010-yilda 1,4 birlik bo'lgan, 2024-yilda esa 2,8 birlikka yetib, ikki barobarga o'sgan (2-jadval). Bu mehnat samaradorligida umumiy ijobiy tendensiya mavjudligini ifodalaydi. Shunday bo'lsa-da, hududlar kesimida ushbu mezon bo'yicha katta farqlar mavjud. Xususan, Urganch shahrida mehnat samaradorligi 2010-yilda 2,7 birlikdan boshlanib, 2024-yilda 4,1 ga etgan. Bu ko'rsatkich shaharning ishlab chiqarish salohiyati va mehnat faolligi yuqori ekanligini ifodalaydi. Tuproqqal'a tumanida esa bu ko'rsatkich 2020-yildan boshlab o'sib borib, 2024-yilda 25,7 ga etdi. Bu holat hududdagi sanoat va ishlab chiqarishning jadal rivojlanganligini ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsada, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Xonqa va Yangiariq tumanlarida mehnat samaradorligi o'rtacha 1,8-2,3 atrofida bo'lib, barqaror o'sishga ega. Lekin, Hazorasp tumanida bu ko'rsatkich 2024-yilda 1,6 darajani tashkil etib, pastligi bilan ajralib qolmoqda. Bu holatni yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hududlardagi tarkibiy o'zgarish bilan asoslaymiz. Shuningdek, Xiva shahrida mehnat samaradorligi bo'yicha viloyat hududlari orasida eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan. Ya'ni, yuqoridagi tahlillarimizda eng kichik qiymatlarga nisbatan qiyosiy o'zgarishni baholaganligimiz boisi, ushbu hududda mehnat samaradorligining statistik qiymatlari 1 ga teng bo'lgan.





Umuman olganda, 2010-yilda hududlar orasidagi farqlar ancha kichik bo'lgan, lekin keyingi yillarda bu farqlar o'sib borgan. Ya'ni, tadqiqotning dastlabki davrida eng kichik va katta ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq 2,7 martaga teng bo'lgan bo'lsa, so'nggi yilga kelib ushbu farq 25,7 birlikni tashkil qilganligini hisob-kitoblarimiz asosida aniqladik. Ayniqsa, yuqori o'zgarishlar Tuproqqal'a tumani va Urganch shahrida yaqqol aniqlangan. Demak, Xorazm viloyatida mehnat samaradorligining statistik baholash asosida 2010-2024-yillar davomida umumiy o'sish aniqlangan bo'lsada, hududlar kesimidagi farqlar yuqori disproporsiyani aks ettirmoqda. Bu holat hududlar kesimida iqtisodiy tengsizliklar, texnologik yangilanishlarning sustligi va kadrlar salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Mehnat samaradorligini viloyat va uning hududlari miqyosida muvozanatli hamda barqaror oshirish uchun hududlararo iqtisodiy rivojlanishni mustahkamlash, investitsiyalarni kengaytirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimlarini takomillashtirish zarur.

Xorazm viloyati va uning hududlarida sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligi 2010-yildan 2024-yilgacha o'sgan. Jumladan, viloyatda sanoat mehnat samaradorligi 2010-yildagi 1,0 mln.so'mdan 2024-yilda 24,2 mln.so'mga etgan va ushbu davrda 24 barobardan ortiq o'sish qayd etilgan (3-jadval). Bu holat sanoatda mehnat samaradorligi hamda korxonalar samaradorligida ijobiy o'sish yuz berganligidan dalolat beradi.

Hududlar kesimidagi o'zgarishlarni tahlil qilganimizda, notekis o'zgarishlarga guvoh bo'ldik. Jumladan, Urganch shahri va Tuproqqal'a tumani katta o'sish sur'atiga ega bo'lgan.

**3-jadval**

**Xorazm viloyati va uning hududlarida sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligi (mln.so'm) [7]**

| Hududlar nomi   | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  | 2024-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarish |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|--|
| Xorazm viloyati | 1,0  | 1,4  | 1,6  | 2,0  | 2,8  | 3,8  | 3,9  | 5,6  | 9,1  | 11,6 | 13,4  | 18,8  | 19,9  | 22,1  | 24,2  | 23,4                                     |
| Urganch sh.     | 4,0  | 5,0  | 5,8  | 7,7  | 8,5  | 8,0  | 10,9 | 15,0 | 18,8 | 24,3 | 22,5  | 25,5  | 30,5  | 33,6  | 36,7  | 9,2                                      |
| Xiva sh.        |      |      |      |      |      |      |      | 2,3  | 2,9  | 3,4  | 4,1   | 4,0   | 4,6   | 5,0   | 5,3   | 2,3                                      |
| Bog'ot t.       | 0,9  | 1,3  | 1,4  | 1,6  | 1,2  | 2,0  | 2,4  | 3,0  | 4,3  | 4,1  | 4,9   | 6,8   | 7,2   | 8,1   | 9,0   | 10,3                                     |
| Gurlan t.       | 0,6  | 0,8  | 0,8  | 1,1  | 1,1  | 1,8  | 1,9  | 2,7  | 5,3  | 5,9  | 7,8   | 7,7   | 8,9   | 9,5   | 10,2  | 16,7                                     |
| Qo'shko'pir t.  | 0,5  | 0,6  | 0,6  | 0,9  | 1,0  | 1,8  | 1,7  | 2,0  | 3,0  | 3,0  | 4,5   | 5,9   | 5,8   | 6,1   | 6,5   | 13,7                                     |
| Urganch t.      | 0,6  | 0,7  | 0,6  | 0,8  | 1,3  | 2,0  | 2,0  | 2,0  | 2,8  | 3,4  | 4,6   | 10,8  | 10,1  | 11,6  | 13,0  | 23,1                                     |
| Hazorasp t.     | 1,1  | 1,2  | 1,7  | 1,5  | 9,2  | 13,4 | 10,5 | 18,9 | 29,1 | 44,1 | 4,4   | 5,4   | 4,9   | 6,0   | 7,1   | 6,4                                      |
| Tuproqqal'a t.  |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      | 174,4 | 287,9 | 406,1 | 529,5 | 658,4 | 3,8                                      |





|                    |     |     |     |     |     |      |      |      |      |      |       |       |       |       |       |      |
|--------------------|-----|-----|-----|-----|-----|------|------|------|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|------|
| Xonqa t.           | 1,0 | 1,6 | 1,8 | 2,2 | 2,3 | 2,9  | 3,3  | 3,8  | 5,1  | 7,0  | 7,3   | 8,7   | 9,4   | 10,4  | 11,4  | 11,9 |
| Xiva t.            | 0,3 | 0,4 | 0,5 | 0,7 | 0,8 | 1,5  | 1,8  | 1,1  | 2,3  | 2,3  | 5,1   | 4,9   | 5,5   | 6,1   | 6,6   | 19,5 |
| Showot t.          | 0,6 | 1,0 | 1,2 | 1,6 | 1,7 | 2,7  | 2,9  | 4,2  | 7,5  | 5,8  | 4,8   | 5,4   | 5,0   | 4,6   | 4,3   | 6,8  |
| Yangiariq t.       | 0,6 | 0,9 | 0,9 | 1,2 | 1,3 | 2,1  | 2,1  | 2,6  | 5,0  | 4,6  | 6,3   | 6,5   | 7,0   | 7,3   | 7,6   | 13,1 |
| Yangibozor t.      | 0,7 | 0,9 | 0,9 | 1,0 | 1,2 | 2,0  | 1,9  | 2,2  | 3,4  | 3,6  | 8,4   | 13,8  | 13,4  | 15,3  | 17,1  | 23,0 |
| Statistik o'rtacha | 1,0 | 1,3 | 1,5 | 1,9 | 2,7 | 3,7  | 3,8  | 5,0  | 7,6  | 9,5  | 19,5  | 29,5  | 38,5  | 48,2  | 58,4  | 13,1 |
| Statistik maksimum | 4,0 | 5,0 | 5,8 | 7,7 | 9,2 | 13,4 | 10,9 | 18,9 | 29,1 | 44,1 | 174,4 | 287,9 | 406,1 | 529,5 | 658,4 |      |
| Statistik minimum  | 0,3 | 0,4 | 0,5 | 0,7 | 0,8 | 1,5  | 1,7  | 1,1  | 2,3  | 2,3  | 4,1   | 4,0   | 4,6   | 4,6   | 4,3   |      |

Ya'ni, Urganch shahrida mehnat samaradorligi 9,2 barobarga o'sgan (2010-yildagi 4,0 mln.so'mdan 2024-yilda 36,7 mln.so'mga etgan) bo'lib, buni sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'lamining oshganligi, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etilganligi hamda modernizatsiya jarayonlari bilan asoslaymiz. Tuproqqal'a tumanida esa ushbu ko'rsatkich 2020-yildan 2024-yilgacha o'sib borib, tadqiqot davri yakunida 658,4 mln.so'mni tashkil etgan. Bu ijobiy holat tumandagi yirik sanoat loyihalari, investitsiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog'liq.

Viloyatning boshqa hududlarida ham samaradorlikning o'sishi qayd etilgan. Jumladan, mehnat samaradorligi 2024-yilda 2010-yilga nisbatan Gurlan tumanida 16,7 barobar, Qo'shko'pir tumanida 13,7 barobarga o'sganligini aniqladik. Lekin, Xiva shahrida mehnat samaradorligi nisbatan past bo'lib, 2024-yilda 5,3 mln.so'mni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich mintaqadagi eng past qiymatga ega hudud bo'lib qolmoqda. Buning sababi sifatida hududda sanoat sektori etarli darajada rivojlanmaganligi, yangi korxonalar soni ozligi va ishlab chiqarish texnologiyalari eskirganligi bilan izohlaymiz.

Sanoat mehnat samaradorligining o'sishi umumiy iqtisodiy o'sishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning o'sishi, bir tomondan, ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi va yangi korxonalarni barpo etilishini anglatadi, ikkinchi tomondan, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni hamda kapital





bilan ta'minlanganlik darajasining ko'tarilganligini anglatadi. Demak, Xorazm viloyati sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligini oshirish uchun investitsiyalarni mutanosib va muvozanatli taqsimlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Xorazm viloyati sanoat tarmog'ida mehnat samaradorligi o'zgarish tendensiyalarini to'liq ochib berish uchun statistik tadqiqot olib boramiz. Jumladan, 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyatida sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligining qiyosiy tahlili natijalariga ko'ra ko'rsatkichlar umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib o'rtacha 3,8 birlikka teng bo'lgan.

**4-jadval**

**Xorazm viloyati va uning hududlarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan mehnat samaradorligining statistik tahlili (qiyosiy tahlili)<sup>1</sup>**

| Hududlar nomi      | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  | O'rtacha |
|--------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-------|-------|-------|-------|----------|
| Xorazm viloyati    | 0,15 | 0,14 | 0,14 | 0,14 | 0,15 | 0,15 | 0,15 | 0,19 | 0,17 | 0,13 | 0,18 | 0,14  | 0,19  | 0,18  | 0,18  | 0,2      |
| Urganch sh.        | 3,36 | 2,93 | 3,05 | 3,10 | 3,67 | 3,11 | 3,13 | 4,18 | 3,41 | 2,82 | 2,96 | 2,29  | 3,41  | 3,38  | 3,38  | 3,2      |
| Xiva sh.           |      |      |      |      |      |      |      |      | 1,00 | 1,03 | 1,16 | 1,00  | 1,33  | 1,30  | 1,28  | 1,2      |
| Bog'ot t.          | 1,51 | 1,60 | 1,51 | 1,45 | 1,38 | 1,47 | 1,48 | 1,77 | 1,51 | 1,11 | 1,58 | 1,20  | 1,65  | 1,66  | 1,68  | 1,5      |
| Gurlan t.          | 1,57 | 1,61 | 1,62 | 1,56 | 1,58 | 1,72 | 1,65 | 1,84 | 1,92 | 1,38 | 2,07 | 1,49  | 1,92  | 1,84  | 1,77  | 1,7      |
| Qo'shko'pir t.     | 1,19 | 1,18 | 1,17 | 1,11 | 1,12 | 1,23 | 1,21 | 1,46 | 1,41 | 1,00 | 1,58 | 1,16  | 1,49  | 1,42  | 1,35  | 1,3      |
| Urganch t.         | 1,37 | 1,42 | 1,42 | 1,36 | 1,36 | 1,39 | 1,37 | 1,77 | 1,40 | 1,03 | 1,50 | 1,20  | 1,56  | 1,53  | 1,50  | 1,4      |
| Hazorasp t.        | 1,10 | 1,10 | 1,15 | 1,03 | 1,60 | 1,77 | 1,51 | 2,23 | 1,76 | 1,56 | 1,00 | 1,00  | 1,00  | 1,00  | 1,00  | 1,3      |
| Tuproqqal'a t.     |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      | 25,63 | 43,16 | 49,45 | 55,03 | 43,3     |
| Xonqa t.           | 1,25 | 1,32 | 1,33 | 1,27 | 1,27 | 1,35 | 1,29 | 1,65 | 1,39 | 1,04 | 1,62 | 1,18  | 1,54  | 1,52  | 1,51  | 1,4      |
| Xiva t.            | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,92 | 1,30 | 2,02 | 1,62  | 2,05  | 2,00  | 1,95  | 1,4      |
| Shovot t.          | 1,36 | 1,40 | 1,39 | 1,31 | 1,32 | 1,42 | 1,40 | 1,79 | 1,78 | 1,17 | 1,60 | 1,17  | 1,47  | 1,35  | 1,26  | 1,4      |
| Yangiariq t.       | 1,95 | 1,93 | 1,94 | 1,80 | 1,89 | 2,00 | 1,92 | 2,49 | 2,72 | 1,86 | 2,80 | 2,03  | 2,62  | 2,46  | 2,33  | 2,2      |
| Yangibozor t.      | 3,35 | 3,28 | 3,15 | 2,86 | 2,88 | 3,20 | 3,09 | 3,98 | 4,29 | 3,11 | 5,11 | 4,08  | 5,03  | 4,88  | 4,76  | 3,8      |
| Statistik o'rtacha | 1,7  | 1,7  | 1,7  | 1,6  | 1,7  | 1,8  | 1,7  | 2,2  | 2,0  | 1,5  | 2,1  | 3,5   | 5,2   | 5,7   | 6,1   | 2,7      |
| Statistik maksimum | 3,4  | 3,3  | 3,2  | 3,1  | 3,7  | 3,2  | 3,1  | 4,2  | 4,3  | 3,1  | 5,1  | 25,6  | 43,2  | 49,5  | 55,0  |          |
| Statistik minimum  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0  | 1,0   | 1,0   | 1,0   | 1,0   |          |

<sup>1</sup>



Shunday bo'lsada, mazkur ko'rsatkichlar hududlar kesimida o'rganilganda, Urganch shahri mehnat samaradorligi 2010-yildagi 11,7 ko'rsatkichdan 2024-yilda 8,5 ga pasaygan bo'lsada, yuqori o'rtacha darajani saqlab qolmoqda (4-jadval). Shu bilan birga, Tuproqqal'a tumanidagi o'sish eng yuqori bo'lib, 2020-yildan boshlab o'ziga xos industrial markazga aylanganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar o'rtasida mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarining katta farqlari Xorazm viloyatida sanoat sektori rivojidagi nomutanosibliklardan dalolat beradi. Xususan, Xiva shahri va Shovot tumanlarida mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari past va barqaror holda qolmoqda. Bu esa bu hududlarda sanoat sektoriga investitsiya va texnologiyalarning nisbatan kam darajada yo'naltirilayotganligidandir. Shu bilan birga, ushbu hududlarning birinchisida turizm, ikkinchisida esa qishloq xo'jaligi ustuvor sanaladi. Tahlil ma'lumotlarimizdan ko'rdikki, 2015-2016-yillarda Urganch shahri va Hazorasp tumanlarida mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari pasaygan. Buning asosiy sabablari sifatida kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ishlab chiqarish jarayonlarining samarasizligi, investitsiyalar taqsimotining maqbul va oqilona amalga oshirilmaganligi bilan bog'liq. Mazkur muammolarni hal qilishda hududlarda sifatli boshqaruv usullarini tatbiq qilish, innovatsiyalarni jadallashtirish va kadrlar malakasini oshirishimiz zarur. Demak, Xorazm viloyati iqtisodiyotida sanoat sektori mehnat samaradorligi va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha muhim o'rin tutadi. Mehnat samaradorligining o'sishi bu sohada texnologiyalarning yangilanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mehnat resurslarini samarali taqsimlash natijasi hisoblanadi. Jumladan, Tuproqqal'a tumanining katta o'sishi sanoat sektoridagi yangi loyihalar va investitsiyalarning amalga oshirilganini ko'rsatsa, boshqa hududlarda ushbu jarayonlar nisbatan sust kechmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xorazm viloyatida sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligi o'sishini saqlash uchun investitsiyalarni samarali taqsimlash, innovatsiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va infratuzilmani takomillashtirishimiz zarur. Umumiy holda, mintaqa va uning hududlaridagi sanoatning faollik darajasi ortadi, ishlab chiqarish ko'lami kengayadi natijada ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi oshadi. Demak, kapital omili mehnat samaradorligini sanoatda oshirish uchun ustuvor manba sifatida ahamiyatga ega ekan. Bu esa ushbu omilning mintaqaviy va hududiy xususiyatlarini qarab o'tishimizni talab qiladi. Sanoat tarmog'i mehnat samaradorligini oshirish uchun hududiy farqlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks siyosat zarur. Xususan,





investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish, texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini mintaqa talablariga moslashtirish hamda kichik sanoat zonalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan statistik baholash modelidan foydalanish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, sanoatning raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror o'sishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bazhal I. The Theory of Economic Development of J.A. Schumpeter: Key Features. MPRA Paper No. 69883, posted. 2016. – p. -17. / [https://mpra.ub.uni-muenchen.de/69883/1/MPRA\\_paper\\_69883.pdf](https://mpra.ub.uni-muenchen.de/69883/1/MPRA_paper_69883.pdf)
2. Kaya P.H. Joseph A. Schumpeter's perspective on innovation. International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom. Vol. III, 2015. - p-13. / <https://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2015/08/383.pdf>
3. Митиаиева Т. (2013) Понятия галузи за передумови и формирования [Concepts and prerequisites of its formation]. Visnyk KhDUKhT, no.3, p. 199-209.
4. Faundez J. Douglass North's Theory of Institutions: Lessons for Law and Development. Hague J Rule Law. 2016. - p-48. / DOI 10.1007/s40803-016-0028-8
5. Горловская И.Г. Особенности формирования механизма устойчивого развития промышленных предприятий в условиях перехода к новому технологическому укладу. // Экономические науки, 2010, №70. - С. 203–206.
6. Rajzberh B. (2001) Современный экономический словарь [Modern dictionary of Economics]. - Москва: ИНФРА-М (in Russian)
7. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari hisob-kitoblari

